

XORIJIY INVESTITSİYALARNI ENG KO'P JALB QILUVCHI MAMLAKATLARDAGI INVESTITSION MUHIT: QIYOSIY TAHLIL

Xo'jamova Nigora

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fakulteti 1-bosqich talabasi

Telefon raqam: +998 77 0373527

E-mail: nigoraxojamova570@gmail.com

Ilmiy rahbar: Ergasheva Shoxinur G'ayratovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20377088>

Annotatsiya:

Mazkur maqola globallashuv jarayonida xorijiy investitsiyalarni eng ko'p jalb qiluvchi mamlakatlardagi investitsion muhitni qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Ishda AQSh, Germaniya, Singapur va Xitoy kabi davlatlarning investitsiya siyosati, iqtisodiy infratuzilmasi hamda investorlar uchun yaratilgan qulay sharoitlari o'rganilgan. Shuningdek, ushbu mamlakatlarda xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishga ta'sir etuvchi asosiy omillar- soliq siyosati, innovatsion rivojlanish, transport infratuzilmasi va ichki bozor imkoniyatlari- bir xil metodologiya asosida taqqoslab tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida investitsion muhitni yaxshilash orqali mamlakatlarning iqtisodiy o'sishini ta'minlash, xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va global raqobatbardoshlikni oshirish mumkinligi asoslab beriladi. Mazkur tajribalar rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (TXI), investitsion muhit, globallashuv jarayoni, investitsiya jozibadorligi, innovatsion rivojlanish, iqtisodiy infratuzilma, xalqaro iqtisodiy hamkorlik, global iqtisodiyot.

Аннотация: Данная статья посвящена сравнительному анализу инвестиционного климата в странах, наиболее привлекающих иностранные инвестиции в процессе глобализации. В работе изучены инвестиционная политика, экономическая инфраструктура и благоприятные условия, созданные для инвесторов в таких странах, как США, Германия, Сингапур и Китай. Также основные факторы, влияющие на привлечение прямых иностранных инвестиций в этих странах - налоговая политика, инновационное развитие, транспортная инфраструктура и возможности внутреннего рынка - были сравнительно проанализированы на основе единой методологии. В результате исследования обоснована возможность обеспечения экономического роста стран, расширения международных экономических связей и повышения глобальной конкурентоспособности за счет улучшения инвестиционного климата. Этот опыт имеет важное практическое значение для развивающихся стран.

Ключевые слова: Иностранные прямые инвестиции (ПИИ), инвестиционный климат, процесс глобализации, инвестиционная привлекательность, инновационное развитие, экономическая инфраструктура, международное экономическое сотрудничество, глобальная экономика.

Annotation: This article is devoted to a comparative analysis of the investment climate in countries that attract the most foreign investment in the process of globalization. The study examined the investment policy, economic infrastructure, and favorable conditions created for

investors in such countries as the USA, Germany, Singapore, and China. Also, based on the same methodology, the main factors influencing the attraction of foreign direct investment in these countries - tax policy, innovative development, transport infrastructure, and domestic market opportunities - were comparatively analyzed. As a result of the research, the possibility of ensuring the economic growth of countries, expanding international economic relations, and increasing global competitiveness through improving the investment climate is substantiated. These experiences are of great practical importance for developing countries.

Keywords: Foreign direct investment (FDI), investment climate, globalization process, investment attractiveness, innovative development, economic infrastructure, international economic cooperation, global economy.

Kirish Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan davlatlar iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish rivojlanish darjasining yuqori bo'lishida muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Hra bir davlat ichki va tashqi iqtisodiyotining tez fursatda oshib borishida zamonaviy texnologiyalarni sanoatga kiritish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish uchun xorijiy kamitalga ehtiyoj sezadilar. Rivojlangan davlatlar tajribasi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muvaffaqiyatli strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda namunaviy rol o'ynaydi.

Globallashuv sharoitida investitsiyalar nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki mintaqalararo hamkorlikni kengaytiradi. Xitoy, AQSh va Singapur kabi mamlakatlar o'z investitsion muhitini optimallashtirib, dunyo bo'ylab investorlar uchun jozibador markazga aylangan. Ularning muvaffaqiyati milliy siyosatning to'g'ri yo'naltirilishi, infratuzilmaning rivojlanishi va qonunchilikning investorlar uchun qulay shaklda tashkil etilishi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda raqamli texnologiyalar, yashil iqtisodiyot, innovatsion loyihalar va transport infratuzilmasi muhim omillardan biriga aylanib bormoqda. Globallashuv jarayonida bu omillarni muvaffaqiyatli qo'llagan davlatlar iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichlariga chiqmoqda.

Asosiy qism Xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda joriy qiluvchi mamlakatlardagi muhitni o'rganish keng miqyosda bo'lsada, ammo hali ham ayrim tadqiqotlarda bo'shliq mavjud. Hususan, mavjud ilmiy adabiyotlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish omillari ko'pincha alohida mamlakatlar misolida o'rganilgan bo'lib, ular o'rtasidagi qiyosiy tahlil yetarli darajada o'rganilmagan. Xususan, rivojlangan davlatlar — AQSh, Germaniya, Singapur va Xitoy — investitsion muhitlarini bir xil vaqt oralig'ida va bir xil metodologiya asosida taqqoslaydigan tadqiqotlar soni cheklangan. Tadqiqotlar metodologiyasi uchun ushbu tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

1) Qiyosiy tahlil - to'rtta mamlakat bir xil ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslandi; Statistik ma'lumotnoma tahlili - UNCTAD, Jahon banki va milliy statistika organlari ma'lumotnomalaridan foydalanildi;

2) Kontent-analiz - ilmiy manbalar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari tahlil qilindi;

3) Case study yondashuvi - har bir mamlakat alohida holat sifatida o'rganildi.

Tadqiqotning o'rganuvchi ob'yekti esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda yetakchi bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiy siyosati, infratuzilmasi va investitsion muhitini shakllantirish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotdagi muhim predmeti- bu xorijiy investitsiyalarni eng ko'p jalb qiluvchi mamlakatlarning investitsion muhiti va bu muhitning investorlarga taqdim etayotgan imkoniyatlari.

Ushbu tadqiqotni asosiy maqsadi: globallashuv jarayonida yetakchi davlatlarning investitsion muhitini o'rganish, muhitni shakllantiruvchi omillarni aniqlash va rivojlanayotgan davlatlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Xorijiy investitsiyalar nazariyasi sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan va ushbu maqolada ishlatilgan adabiyotlar va manbalarning sharhi quyida keltirib o'tilgan. Dunning (1993) tomonidan ishlab chiqilgan OLI (Ownership, Location, Internalization) paradigmasi xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi omillarning asosiy nazariy asosi hisoblanadi. Mazkur nazariya bo'yicha mamlakatlar o'ziga xos joylashuv afzalliklari (soliq, bozor hajmi, infratuzilma) orqali investitsiyalarni jalb qiladi.

Froot va Stein (1991) tadqiqotlari valyuta kursi va xorijiy investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni isbotlagan Asiedu (2002) rivojlanayotgan mamlakatlar uchun infratuzilma va siyosiy barqarorlikning TXIni jalb qilishdagi hal qiluvchi rolini ko'rsatib bergan. Wei (2000) korrupsiya darajasining investitsiyalarga salbiy ta'sirini miqdoriy jihatdan baholagan.

Singapur tajribasini o'rganishda Blomstrom va Kokko (2003) investitsion muhit va innovatsion rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilishgan. Xitoyning investitsion siyosatini o'rganishda Buckley va boshq. (2007) BRI tashabbusining global kapital oqimlarga ta'sirini asoslab bergan. Biroq, ushbu ishlarning aksariyati alohida mamlakatlarni tahlil qilish bilan cheklangan va kompleks qiyosiy yondashuv yetishmaydi. Mazkur tadqiqot ana shu bo'shliqni to'ldiradi.

AQSh jahon miqyosida eng yirik iqtisodiyotiga ega davlatlar o'rtasida yitakchilikni o'z qo'liga olgan bo'lib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda o'zining jozibador investitsion muhitini taqdim etadi. 2023-yilda AQShga kelgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) miqdori 341 milliard dollarni tashkil etadi va bu ko'rsatkich global TXI oqimining qariyb 25% ulushini egalladi. AQShning investitsion muvaffaqiyatini ta'minlovchi to'rtta asosiy omil mavjud. Bulardan biri sifatida texnologik inovatsiyalarni ko'rishimiz mumkin. AQShning innovatsion sektori, xususan texnologiya va farmatsevtika sanoatlari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy omil hisoblanadi. Silicon Valley kabi texnologik markazlar xorijiy investorlarga yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishda ishtirok etish imkoniyatini beradi. 2022-yilda AQShda texnologiya va ilm-fan sohasiga investitsiyalar hajmi 60 milliard dollardan oshdi. Yana bir e'tiborli jihatlardan biri qulay soliq siyosati 2017-yilda qabul qilingan Tax Cuts and Jobs Act orqali korporativ soliq stavkasi 35% dan 21% ga tushirildi. Bu korporatsiyalar uchun yanada qulayroq investitsiya muhitini yaratdi. 2021-yilda ushbu siyosat 1,5 trillion dollardan ortiq iqtisodiy ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari rivojlangan infratuzilma ham investitsiyalarni jalb qilishda asosiy jihatlaridan biri desak adashmagan bo'lamiz. AQSh dunyoning eng yirik eksportchilaridan biri hisoblanadi va 2022-yilda eksporti 2,3 trillion dollarni tashkil etdi. Los Angeles porti va New York JFK aeroporti global savdoni qo'llab-quvvatlaydi.

Qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak katta ichki bozorning bu borada ajralmas hissasi bor.

330 milliondan ortiq aholi va 2023-yilda taxminan 15 trillion dollar iste'mol xarajatlari AQShni dunyodagi eng yirik iste'mol bozorlaridan biri sifatida mustahkamlaydi.

Germaniya- Yevropaning xorijiy investitsiyalar markazi sifatida etirof etish mumkin davlatlar qatorida yetakchi o'rinlarni saqlab kelmoqda. Buning asosiy sabablaridan sifatida: qulay strategik joylashuv, inovatsiya, tadqiqot va ishlanmalar, yuqori malakali sihchi kuchi va o'zgarmas ishchi kuchilarni ko'rishimiz mumkin.

Germaniya 2023-yilda 34,8 milliard yevro hajmda TXI jalb qildi, bu esa o'tgan yilga nisbatan 37,5% o'sishni ko'rsatadi.

Germaniyaning investitsion jozibadorligi bir necha strategik afzalliklarga asoslanadi. Strategik joylashuv: Yevropa markazida joylashganligi savdo va logistika uchun ideal shart-sharoit yaratadi. Rivojlangan temir yo'l va avtomobil yo'llari tizimi global kompaniyalarga samarali logistika imkonini beradi. R&D va innovatsiya: 2023-yilda Apple Myunxendagi chip dizayn markaziga 1 milliard yevro, Eli Lilly farmatsevtika zavodiga 2,3 milliard yevro, BP esa shamol energetika loyihalariga 6,8 milliard yevro investitsiya kiritdi.

Bu raqamlar Germaniyaning R&D salohiyatini yaqqol ko'rsatadi. Yuqori malakali ishchi kuchi: Ta'qim tizimi va ilmiy-tadqiqot institutlari global bozor ehtiyojlariga mos keluvchi kadrlarni yetishtirishda faol ishtirok etadi.

Barqaror huquqiy tizim: Intellektual mulkni himoya qilish bo'shliqcha kuchli mexanizmlar va Yevropa Ittifoqi bilan mustahkam aloqalar investorlar uchun ishonchli muhit yaratadi. Singapur-Janubiy-Sharqiy Osiyoda joylashgan keng kulamli investitsion muhtga ega bo'lgan yetakchi manzillardan biri. Asosiy qulaylik yaratuvchi tomonlar: qulay soliq tizmi, moliyaviy xizmatlar buyicha yitakchiligi, strategik joylashuv, hukumatning investitorlarni qo'llab-quvvatlovchi siyosati 2023-yilda Singapurga kirgan TXI hajmi 214 milliard dollarni tashkil etdi, bu esa o'tgan yilga nisbatan 10% o'sishni ko'rsatadi. Aholisi atigi 5-6 million bo'lgan bu kichik mamlakat uchun bu raqam alohida e'tiborga loyiqdir. Qulay soliq tizimi: Korporativ soliq stavkasi atigi 17% bo'lib, bu mintaqadagi eng past ko'rsatkichlardan biri. Texnologiya va innovatsion sohalarga qo'shimcha imtiyozlar mavjud. Moliyaviy xizmatlar yetakchiligi: 2023-yilda jami TXIning 54% moliyaviy xizmatlar sektoriga yo'naltirildi. Kasbiy xizmatlar va ishlab chiqarish sektorlari ham katta ulushga ega. Strategik joylashuv: Dunyo eng band portlaridan biri sifatida Singapur global savdo chorrahasida joylashgan. Bu investorlarga Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharq bozorlariga qulay kirish imkonini beradi. Hukumat qo'llab-quvvatlash siyosati: R&D loyihalari uchun grantlar, startaplar va farmatsevtika sohaloriga subsidiyalar ajratiladi. Xitoyning boshqa davlatlar bilan farqlanadigan jihati- tez rivojlanayotgan iqtisodiyot tizimigi ega ekanligidadir. Investitsiyalarni jalb qiluvchi ustun tomonlari ishlab chiqarish salohiyatining yuqoriligi, erkin iqtisodiy zonalar va shu kabilar misol tariqasida ko'rishimiz mumkin. Xitoy iqtisodiyoti dunyoning ikkinchi yirik iqtisodiyotiga aylangan bo'lib, 2023-yilda TXI miqdori 189,1 milliard dollarga yetgan. Shu yili Xitoyning umumiy eksporti 3,37 trillion dollarni tashkil etdi.

Ishlab chiqarish salohiyati: Apple, Nike, General Motors kabi yirik korporatsiyalar o'z ishlab chiqarishini Xitoyda joylashtirishga qaror qilgan. Nisbatan past xarajatlar va ulkan sanoat infratuzilmasi asosiy omillar hisoblanadi.

Natijalar va tahlil "Bir makon, bir yo'l" (BRI) tashabbusi: 140dan ortiq davlat bilan iqtisodiy aloqalar, 3000dan ortiq infratuzilma loyihasi, taxminan 1 trillion dollar xarajat.

CPEC kabi yirik loyihalar Xitoyga Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqda qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda. Erkin iqtisodiy zonalar: Shenzhen va Shanghai Free Trade Zone. Shenzhenda soliq stavkasi 15%, 2019-yil holatiga ko'ra 1300dan ortiq xorijiy kompaniya faoliyat ko'rsatmoqda. Ulkan ichki bozor: 1,4 milliard aholi va 2021-yilda 2,1 trillion dollar hajmidagi elektron tijorat bozori⁷. Quyidagi 1-jadvalda to'rtta mamlakatning asosiy investitsion ko'rsatkichlarining 2023- yildagi statistik malumotlarda qiyosiy ravishda keltirilgan.

1-jadval

Ko'rsatkich	AQSh	Germaniya	Singapur	Xitoy
2023 TXI hajmi	\$341 mlrd	€34,8 mlrd	\$214 mlrd	\$189,1 mlrd
Korporativ soliq	21%	~15–29%	17%	25% (zona 15%)
Ichki bozor	330 mln aholi	84 mln aholi	5,9 mln aholi	1,4 mlrd aholi
Global reyting (TXI)	#1	Yevropa #1	Jan.Sharq. #1	Dunyo #2
Asosiy ustunlik	Tech & bozor	R&D & sanoat	Moliya & joylashuv	Ishlab chiqarish & BRI
Huquqiy tizim barqarorligi	Yuqori	Yuqori	Juda yuqori	O'rta

Manba: UNCTAD, 2024; GTAI, 2023; SingStat, 2023; muallif tahlili.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir mamlakat o'ziga xos raqobat ustunligiga ega. AQSh katta ichki bozor va texnologik innovatsiya, Germaniya R&D va yuqori malakali ishchi kuchi, Singapur arzon soliq va strategik joylashuv, Xitoy esa keng ishlab chiqarish salohiyati va BRI tashabbusi orqali global raqobatda yetakchilikni saqlamoqda. Muhim farq shundaki, Singapur aholisining kichikligi va ichki bozor cheklanganligiga qaramasdan, qulay soliq va logistik afzalliklar tufayli ulkan TXI jalb qilishga muvaffaq bo'lyapti — bu kichik davlatlar uchun muhim saboq hisoblanadi.

Xulosa Qulay investitsion muhit yaratish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki innovatsiyalarni joriy etish, yangi texnologiyalarni rivojlantirish va xalqaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Soliq imtiyozlari, rivojlangan infratuzilma va barqaror huquqiy tizim muvaffaqiyatli investitsion muhitning uchta asosiy ustuni hisoblanadi. Tahlil qilingan to'rtta mamlakat har biri o'ziga xos strategiyasiga ega, biroq ularda umumiy jihat bor — davlat siyosatining investorlar manfaatlariga moslashtirilganligi.

Kichik bozorga ega mamlakatlar ham (Singapur tajribasi) to'g'ri strategiya orqali yirik TXI jalb qila olishi isbotlandi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

- UNCTAD. Global Foreign Direct Investment Grew 3% in 2023 as Recession Fears Eased. 2024. URL: <https://unctad.org/news/global-foreign-direct-investment-grew-3-2023-recession-fears-eased>
- NBER. Investment Effects of the 2017 Tax Cuts and Jobs Act. June 2024. URL: <https://www.nber.org/digest/202406/investment-effects-2017-tax-cuts-and-jobs-act>
- GTAI. 2023 Report: Germany Records Big Rise in FDI. Berlin: GTAI, 2023. URL: <https://www.gtai.de/en/invest/business-location-germany/2023-report-germany-records-big-rise-in-fdi-211>
- Singapore Department of Statistics (SingStat). Singapore Official Statistics. 2023. URL: <https://www.singstat.gov.sg/>

5. Encyclopaedia Britannica. Belt and Road Initiative. 2023. URL: <https://www.britannica.com/topic/Belt-and-Road-Initiative>
6. China Briefing. China Business and Economic News. 2023. URL: <https://www.china-briefing.com>
7. MS Advisory. China Free Trade Zones Overview. 2023. URL:
8. Dunning, J.H. Multinational Enterprises and the Global Economy. Addison-Wesley, 1993.
9. Froot, K., Stein, J. Exchange Rates and Foreign Direct Investment. Quarterly Journal of Economics, 1991, 106(4), 1191–1217.
10. Asiedu, E. On the Determinants of Foreign Direct Investment to Developing Countries. World Development, 2002, 30(1), 107–119.
11. Wei, S-J. How Taxing is Corruption on International Investors? Review of Economics and Statistics, 2000, 82(1), 1–11.
12. Blomstrom, M., Kokko, A. The Economics of Foreign Direct Investment Incentives. NBER Working Paper, 2003.
13. Buckley, P.J. et al. The Determinants of Chinese Outward Foreign Direct Investment. Journal of International Business Studies, 2007, 38(4), 499–518.